



TA'LIM MUASSASALARIDA INGLIZ TILI DARSLARIDA SO`ZLASHUV USLUBINI RIVOJLANTIRISH UCHUN METODLAR

Mo`ydinova Marjona Qahhorjon qizi

SamDCHTI 2- bosqich talabasi

Ilmiy raxbar: N.N.Zubaydova.

Ilmiy raxbar: Sh.O.Mamayaqubova

moydinovamarjona1006@gmail.com

Tel raqam: +998 91 669 40 04

Annotatsiya: Hozirda, ta'lim muassasalarida til o'rganuvchilarga xorijiy tillarni o'rgatish juda ham muhim hisoblanadi va shunday chet tillaridan biri bu ingliz tili hisoblanib, u dunyo bo'yicha eng ko'p so'zlashiladigan tillardan biridir. O'qtuvchilar tomonidan o'rganuvchilarga, asosiy to'rt ko'nikma bo'yicha ta'lim beriladi, bulardan biri so'zlashuv uslubi hisoblanib, uning rivojlantirish davomiyligida o'qtuvchilarga ko'plab metodlar kerak bo'ladi. Ingliz tili, uning rivojlanish tarixi, xalq madaniyati va kundalik hayotini o'rganish nafaqat o'rganuvchilarning ingliz tilini o'rganishga qaratilgan faoliyati, va ijodiy qobiliyatlarini aniq hayotiy materiallar bo'yicha rivojlantirish shartlaridan biri sifatida qaralishi kerak, va shunday metodikalarni ba'zilarni ushbu maqola orqali yoritib beriladi.

Kalit so'zlari: lug'at boyligi, savol javob, taqlid, dialog, kino ko'rish va tahlil qilish.

Ta'lim muassasalarida o'rgatilayotgan xorijiy tillar hozirgi kunda juda ham ko'p bo'lib, ulardan biri ingliz tili hisoblanadi. Hozirda yurtimizda keng miqyosda yoshlar tomonidan o'rganilyotgan til ham shu til ekan, o'quvchilarning so'zlashuv uslubini rivojlantirish uchun metodlarni ham bir miqyosda o'rganib chiqishimiz talab qilinadi. Chunki o'rganuvchilarning ingliz tilini o'rganishga qaratilgan faoliyati o'laroq, ijodiy qobiliyatlarini ham hayotiy materiallar bo'yicha rivojlantirish, qolaversa, til o'rganishda eskicha bo'lgan usullardan foydalanish; grammatik qoidalarni yodlash va darsliklardan shunchaki nusxa olish kabi eskicha yondashuvlar hozirgi biz yashab ta'lim olayotgan XXI asr uchun eng samarali yoki o'qish uchun ilhomlantiruvchi uslublar emasligi hech shubhasiz tan olinadi. Bugungi kuni biz ijtimoiy tarmoqlarsiz tasavvur etmaymiz va ulardan kundalik hayotimizda foydalanamiz. Ular haqiqatdan ham vaqt va pulni tejashimiz uchun foydalidir.[¹].

Hozir siz og'zaki nutq mahoratini oshirish uchun hayotimizdagi so'zlashuvdan yiroq bo'lmagan metodlar, shuningdek axborot texnologiyalarining va ijtimoiy tarmoqlarning asosiy afzalliklari bilan tanishasiz .

1



1. Lugʻat boyligi. Hozirgi zamon oʻrganuvchilarining chet tillardagi lugʻat boyligini oshirishda axborot texnologiyalarining oʻrni ahamiyatidir. Va albatta ingliz tili uchun ham chunki hozirda ingliz tilidagi lugʻat boyligini oshirish axborot texnologiyalari bilan oson va samarali boʻladi. Axborot kommunikatsion texnologiyalarga boʻlgan qiziqishi orqali oʻrganuvchilar yangi soʻzlarni tez va samarali ravishda yod olish imkoniyatiga ega boʻladi, va oʻqtuvchilar tomonidan oʻquvchilarga lugʻat yodlashni foalashtiradigan har xil topshiriqli mashqlar, oʻquvchilar uchun qiziqarli, tez va samarali oʻrganishlarni taʼminlab bera oladi.^[2].

2. Savol javob usuli, aniq savolga ravon mukammal javob bera olishlikni oʻrgatadi. Shuningdek bu usulda oʻqituvchi har darsda foydalana oladi va bu hamma oʻrgauvchilar va bu hamma oʻrganuvchilar uchun qiziqarli boʻla oladi. Va bunda savollar odatiy hayot tarzidan olingan boʻlib oʻquvchini qiynab qoʻymasligi kerak. Misol uchun quyda keltirilgan holdagidek sodda shaklda oʻrganuvchilarning bilim darajasiga qarab foydalaniladigan usul hisoblanadi. Boshlangʻich sinf oʻqituvchilari uchun mana bu tarzda olib borilishi ham mumkun.

Teacher: Are you ready for the lesson?

Pupils: Yes, we are ready.

Teacher: How old are you David?

David: I am 8.

Teacher: Behzod, where do you live?

Behzod: I live in Kokand.

Oʻqituvchi sinf xonasi ichidagi koʻrgazmalardan ham unumli foydalanadi.

How many fruits here?

Pupils: 6

Teatcher: What is it?

Pupils: It is a fish, it is a frog, crocodile, monkey, snake.

Teacher: What can you draw?

Charos: I can draw an apple.

Jahongir: I can draw a strawberry.

Milana: I can draw a flower

3. Taqlid qilish usuli yaʼni (imitation - the action of using someone or something as a model " a child learns to speak by imitation") taqlid qilish usuli hozirda til oʻrganuvchilarining orasida juda ham keng tarqalgan usullardan bir boʻlib bu metodika til oʻrganuvchilariga ingliz tilidagi, ikki turdagi talaffuzdan birini tanlashlariga juda ham samarali yordam berib kelmoqda. Bir bilamizki, ingliz tilida ikki xil talaffuz turi bor, oʻrganuvchilar taqilid qilayotgan ijtimoiy tarmoqlardagi insonlarning Britaniya talaffuz tizimi va ikkinchisi Amerika talaffuz tizimi



hisoblanadi. Taqlid qilish orqali bu ikki xil talaffuzni o'rganuvchilar chalkashtrib yuborishlari ancha kamayadi.

4. Dialog, bu ikki kishi o'rtasidagi o'zaro muloqot suhbat hisoblanadi. Bu tilimizning tezroq yangi tilga moslashishiga yordam beradigan metodlardan biri.

5. Kino ko'rish va tahlil qilish, bu usul bizga ingliz tilida o'ylashimizni oshirishimizga yordam beradi. Bu esa fikrlarimizni yana ham to'liqroq va ravon tarzda yoritib bera oladigan so'zlashuv uslubiga ega bo'lishimizga tezroq yordam beradi. Haftada bir marta qisqa metrajli film yoki multfilmlar orqali darslarni yana ham qiziqarli qilibgina qolmay, ularni tahlil qilish orqali ingliz tili atmosferasini o'quvchilarga yetkazib berish mumkun. Shuningdek, ularning kundalik hayot tarzidan so'zlalari bilan ham tanishib chiqishlari yana ham osonlashadi.

Xulosa qilib shuni ayta olamanki, agar o'quvchida til o'rginishga qandaydir xohish yoki istak bo'lsa, bemaolol, qiyinchiliklarsiz va tez fursatda o'rgana oladi. Faqat biroz xohish, shijoat va eng muhimi sabr bilan o'rganadigan bo'lsagina, ko'zlagan maqsadiga ,albatta erishadi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/4997/3376>. INGLIZ TILI DARSLARIDA OG'ZAKI SO'ZLASHUV USLUBINI KUCHAYTIRISH | Rakhimova Charosxon Odiljonovna O'zbekiston Davlat Iqtisodiyoti va Diplomatika Universiteti Gid hamkorligi va tarjimonlik faoliyati.
2. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA 15-SON ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI 20.01.2023 O'QUVCHILARNING INGLIZ TILIDAGI LUG'AT BOYLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARINING O'RNI. Zokirjonova Gulshoda O'zDJTU xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili yo'nalishi 2-ingliz fakulteti 2123-guruh talabasi(536-bet).
3. <https://bestpublication.org>.
4. DictionaryDefinitions from Oxford Languages · Learn more
5. dialog - Vikilug'at. <https://uz.m.wiktionary.org/wiki/dialog>
6. Zubaydova Nilufar Nematillaeva , Learning English with phrases (2019).
7. Zubaydova Nilufar Nimatillaeva, The importance of teaching vocabulary (2019).